



## ROSSIYA–UKRAINA MOJAROSI DAVOMIDA BO‘LINMALARNI BOSHQARISH TUSHUNCHASI VA VA UNI JANGDA QO‘LLASH.

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi  
universiteti magistratura tinglovchisi  
podpolkovnik*

*Ходжамкулов Аслиддин  
Нажмудинович.*

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqola Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi harbiy mojarolar sharoitida harbiy bo‘linmalarni samarali boshqarish tushunchasini va uni amaliy qo‘llash usullarini tahlil qiladi. Maqolada qo‘mondonlik strukturalari, kommunikatsiya vositalari, zamonaviy raqamli texnologiyalar va operatsiyalarni muvofiqlashtirish masalalari o‘rganiladi. Shuningdek, harbiy boshqaruv samaradorligini ta‘minlash va vazifalarni bajarishdagi asosiy muammolar ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Harbiy boshqaruv, bo‘linma, Rossiya–Ukraina mojarosi, qo‘mondonlik, kommunikatsiya, raqamli texnologiyalar, operativ muvofiqlashtirish.

### **Аннотация.**

Статья посвящена анализу концепции эффективного управления военными подразделениями в условиях военного конфликта между Россией и Украиной, а также практическим методам её применения. Рассматриваются командные структуры, средства коммуникации, современные цифровые технологии и координация операций. Особое внимание уделено проблемам повышения эффективности управления и выполнения задач подразделениями.

**Ключевые слова:** Военное управление, подразделение, российско-украинский конфликт, командование, коммуникации, цифровые технологии, оперативная координация.



### Abstract.

This paper analyzes the concept of effective military unit command in the context of the Russia–Ukraine military conflict and its practical implementation methods. It examines command structures, communication tools, modern digital technologies, and operational coordination. The study also highlights key challenges in ensuring command efficiency and successful task execution by units.

**Keywords:** Military command, unit, Russia–Ukraine conflict, command, communications, digital technologies, operational coordination.

### KIRISH

So‘nggi yillarda Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi harbiy mojaro jahon siyosiy sahnasidagi eng dolzarb va keng muhokama etilgan masalalardan biriga aylandi. Bu mojaro nafaqat harbiy to‘qnashuvlar, balki strategik, siyosiy, axborot va ijtimoiy jihatlardan ham keng qamrovli bo‘lib, mintaqadagi barqarorlik, xavfsizlik va xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday murakkab sharoitda turli tashkilotlar, xususan davlat, nodavlat va xalqaro institutlar o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqib, jangda bo‘linmalarni samarali boshqarish, jangovar harakatlar davomida kamchiliklarni tezda tuzatish, o‘zaro munosabatlardagi inqirozlarni bartaraf etish va aholi o‘rtasida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash yo‘lida yangi, ilg‘or usullarni joriy etishga majbur bo‘lmoqda.

### ASOSIY QISM

**1. Boshqarish tizimi va qurilmalari: Asosiy tushunchalar.** bo‘linmalarni boshqarish degani – razvedka va kuzatuvdan olingan ma’lumotlardan foydalangan holda qaror qabul qilish, buyruq berish, bo‘linmalarning harakatini jipslashtirish, nazorat qilish va zarur bo‘lganda o‘zgartirishlarni amalga oshirish jarayonidir. ilg‘or usullar deganda – ma’lumotlarni tez va aniq qayta ishlash, raqamli (tarmoq-markazlashgan) boshqaruv tizimlari, razvedka, aloqa, razvedkaning va xabar keltirish (ISR) tizimlari bilan integratsiyalangan C2 ya’ni C2ISR konsepsiyasi shuningdek, sun’iy intellekt, dronlar, avtomatlashtirilgan kommunikatsiya



qurilmalari, elektron urush vositalari kabi texnologiyalar tushuniladi. Masalan, Rossiya tayyorlagan «C5ISRT» (command, control, computing, communications, intelligence, surveillance, reconnaissance, and targeting) konsepsiyasi [1-7]. “Kill chain” (o‘ldirish sikl) tushunchasi – dushmanni aniqlashdan tortib zararlashgacha bo‘lgan bosqichlarning tizimli jarayonidir va shujarayonni qisqartirish, integratsiyalash hamda ilg‘or boshqaruvning bir belgisi hisoblanadi [3].

## **2. Rossiya–Ukraina mojarosida ilg‘or boshqaruv usullarining o‘ziga xosliklari. 2.1. Tarmoq-markazlashgan (network-centric) boshqaruv tizimi.**

International Centre for Defence and Security tomonidan tayyorlangan tahlilda aytilishicha, Ukraina armiyasi (Armed Forces of Ukraine) “markazchan – dron” (drone-centric) muhitda markazlashgan tarmoq boshqaruv modelini qo‘llamoqda [1].

Bunda: razvedka (dronlar, sensorlar, suniy yo‘ldoshlar va boshqalar) → ma’lumotlarni yig‘ish → boshqaruv markazlariga uzatish → qaror qabul qilish → buyuruqlarni amalga oshirishning barchasi bir tarmoqda amalga oshiriladi. o‘sha tarmoqning samarasi – “o‘ldirish, yakson qilish sikli”ni qisqartirish va bo‘linmalar orasida ma’lumotlar almashuvini tezlashtiradi. Misol uchun, Ukrainada boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonida raqamli platforma – Delta – ni qo‘llash sharoiti kuzatiladi.

**2.2. Shifrlı boshqaruv platformalari va tahlil tizimlari:** Delta tizimi: razvedka, dronlardan, sensorlardan, mobil qurilmalardan olingan ma’lumotlarni birlashtirib, bir vaqtda axborotni xarita shaklida ko‘rsatish imkonini beruvchi tizimdir; bu kabi platformalar bo‘linmalarga real vaqtda “foydalanish holati” (situational awareness) beradi, qaror qabul qilish uchun zarur asosni yaratadi. Shu bilan birga, Rossiya tomonidan ham tahlillar amalga oshirilib urushdan olingan saboqlar asosida Rossiya harbiy-sanoat komplekslari va boshqaruv tuzilishlari “texnologik moslashuv”ga o‘tmoqda[4].



### **2.3. Texnologik ta'sirlar: dronlar, razvedka sensorlari va elektron urush:**

dronlar (UAV/UCAV/FPV) razvedka va hujum vazifalarini bajarmoqda. Rossiya – Ukraina mojarosida dronlarning roli katta bo'lib ulardan kuzatish, nishonni aniqlash, zarba berish uchun foydalanilmoqda.

Elektron urush va kommunikatsiya tizimlari ham muhim bo'lib, raqib boshqaruv tizimlariga aralashish, ta'sir ko'rsatish, signallarni bloklash, sensorlarni ishlashini sekinlatish kabi usullari qo'llanilmoqda. boshqaruvni avtomatlashtirish, dronlarni tarmoqqa joylashtirish va ularni boshqarish mexanizmlari – boshqarish usulini yangilamoqda rivojlantirmoqda [1].

**2.4. Qisqa, tezkor qarorlar berish va bo'linma darajasida nazoratni amalga oshirish:** ilg'or boshqaruvda qaror qabul qilish vaqti qisqarishi shuningdek, jadal harakat qiluvchi bo'linmalarda zudlik bilan javob berish imkoniyatlari ustuvor bo'ladi. bo'linma (Batalyon, brigada, divizion) darajasida mustaqillik va javobgarlikni oshirish - markazdan har bir buyruqni kutish emas, vaziyatga ko'ra tez harakat qilishni anglatadi. masalan, AQSh Nizomi yozuvlaridan kelib chiqib, Ukrainada kichik bo'linmalar tez adaptatsiya qilib, moslashib yangi texnologiyalarni joriy qilgani ta'kidlangan [2].

**3. Ilg'or usullarning afzalliklari va mavjud muammolar. Afzalliklari:**  
**ma'lumot va qaror qabul qilish tezligi:** Tarmoq-markazlashgan usullar, raqamli platforma, dronlar va sensorlar orqali berilgan xabarlar bilan boshqaruv jarayonlari jadallashadi. **foydalanish resurslarini optimal taqsimlash:** An'anaviy usullardan farqli ravishda, texnologiyalar orqali bo'linmalarga tez ko'mak berish, hamohang harakat qilish mumkin. **asimmetrik ustunlik:** Masalan, Ukraina raqibidan bunday texnologik usullarning tezligini va jadalligini qo'llab, an'anaviy yalpi guruhlariga qarshi raqobatni sifatli qurishi mumkin. **xavfni kamaytirish:** Razvedka va



nazoratni, dronlar, sensorlar orqali amalga oshirish qayta tiklab bo'lmis inson resurslarining yo'qotilishini kamaytiradi [6,7].

**Muammolari va kamchiliklari. kommunikatsiya va kiber – xavflar:** Boshqaruv tarmoqlari signallarning buzilishi, radio aralashuv, elektron urush ta'siri ostida bo'lishi mumkin. Shu bois boshqaruv tizimlari joylarga va hududlarni nazoratga ololmasligi va so'rovlarga zudlik bilan javob bera olmasligi mumkin. **ma'lumotlar lavhasi va integratsiya muammolari:** Yangi texnologiyalar (dronlar, sensorlar, platformalar) bilan an'anaviy qurolaslahalar, nazorat tuzilmalari birmabir integratsiyalanmog'i lozim. Bu jarayonda muammolar yuzaga kelishi mumkin. **raqobatda texnologik xatoliklar:** Ilg'or texnologiyalarni joriy qilish tezligi va sifatini ta'minlash kerak, aks holda tezlik yoki strategik ustunlik yo'qoladi. **boshqaruvning markazlashuvi va markazlashmaganlik (detsentralizatsiya) masalasi:** tezkorlik bilan qaror qabul qilish uchun bo'linmalarning mustaqilligi zarur, ammo bu markaziy nazoratni kamaytirishi mumkin. Balans(ya'ni oltin o'rtalikni) topish muhim. **qurolli kuchlar tayyorligi va kadrlar masalasi:** Texnologiyalar bo'linmalarga berilganda, ulardan foydalanish, ularni integratsiya qilish uchun kadrlar tayyor bo'lishi zarur[6,7].

**4. Amaliy tavsiyalar va ilg'or usullarni joriy qilish yo'llari** birinchi navbatda, boshqaruv qarorlarini tezlashtirish uchun **bitta integratsiyalangan boshqaruv platformasi** joriy qilinish kerak (masalan, Ukrainada Delta). Bo'linmani boshqaruvini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar undan foydalanishi, ma'lumotlarni yig'ishi va sharhlashi imkoni bo'lishi zarur. bo'linma darajasida (brigada, batalon) **mobil razvedka va sensor tuzilmalarini** joriy qilish – ya'ni dronlar, mini-UUA(BPLA) va sensorlar. Bu bo'linmaning frontda tezkorlik biln zarba berish va javob qaytarish qobiliyatini oshiradi. **elektron urush va radioqismli kommunikatsiya xavflariga qarshi choralarni** kuchaytirish.



Masalan, radioqismli shifrlash, anti-djammer usullar, tarmoqli zaxira kommunikatsiya [5].

**Tezkor qaror qabul qilish uchun yetuk kadrlar tayyorlash:** harbiy bo‘linmalarni boshqaruvchilar, “an’anaviy” boshqaruvchilar malakasini yangilash, texnologiyalarning samarali joriy qilishini ta’minlash. **mustaqillik va javobgarlikni tarmoqlarda ta’minlash:** harbiy bo‘linma boshqaruvchilariga muayyan masalalar bo‘yicha tez qaror qabul qilish vakolati berilsa, bu jang maydonida jadallikni oshiradi, ammo ortiqcha mustaqillik tarmoqni buzuvchi bo‘lmasligi uchun markaziy nazorat muvozanati talab qilinadi. **takror va kuzatuv sikllarini yangilash:** “After-action review”lar, ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonlari, saboqlar chiqarish hamda boshqaruv usullarini doimiy rivojlantirish. Masalan, Ukrainada kichik bo‘linmalar ilg‘or texnologiyalarni tez joriy qilib kelmoqda.

### Xulosa

Rossiya–Ukraina mojarosi shartlarida boshqaruvning ilg‘or usullari – markazlashgan – tarmoq boshqaruv, raqamli boshqaruv platforma, tezkor qaror qabul qilish, texnologiyalardan foydalanish bo‘linmalarni samarali boshqarishni ta’minlaydi. Biroq, bu usullarni amalga oshirishda kommunikatsiya xavflari, kadrlar tayyorligi, integratsiya muammolari kabi to‘sqinliklar mavjud. Shu sababdan, boshqaruv tizimlarini joriy qilishda nazorat, tahlil, saboqlarni chiqarish, takomillashtirish jarayonlari doimiy ravishda olib borilishi zarur. Tezida keltirilgan tavsiyalar jangovar boshqaruv olib borayotgan amaliy muhitda, shu mojarodan olingan saboqlar asosida tayyorlangan. Adabiyotlar (manbalar) ro‘yxati quyida keltirilgan.



**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Samus, M. “Russia’s War in Ukraine: Drone-Centric Warfare”. International Centre for Defence and Security (ICDS) Brief 7, January 2025.
2. “Adapt, Lead, Win: NCO Lessons from Ukraine”. NCO Journal, October 2024.
3. “Russia’s Changes in the Conduct of War Based on Lessons from Ukraine: Adapting Technology, Force Structures, and the Defense Industry”. Military Review, Sept-Oct 2025.
4. “Forecasting Russian Equipment Losses Using Time Series and Deep Learning Models”. Teagan J., arXiv 2509.07813, September 2025.
5. “Using cyber threat intelligence to support adversary understanding applied to the Russia-Ukraine conflict”. Sandoval C., arXiv 2022.
6. Russian Force Generation and Technological Adaptations Update, August 25 2025. Institute for the Study of War.
7. “JULY 2025: Russian Concepts of Future Warfare Based on Lessons from the Ukraine War”. CNA Report.